

**TIL SATHLARINI O'RGATISH ORQALI ORFOEPIK, ORFOGRAFIK,  
PUNKTUATSION VA USLUBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH***G'ulomova Xolida,**O'zbek tilshunosligi kafedrasiga qituvchisi, Chirchik davlat pedagogika  
universiteti***ФОРМИРОВАНИЕ ОРФОГРАФИЧЕСКИХ, ОРФОГРАФИЧЕСКИХ,  
ПУНКТУАЦИОННЫХ И СТИЛИСТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ ПО  
ЯЗЫКОВЫМ УРОВНЯМ ОБУЧЕНИЯ***Гулямова Холида,**старший преподаватель кафедры Узбекского языкоznания, Чирчикского  
государственного педагогического университета***FORMATION OF ORTHOGRAPHIC, ORTHOGRAPHIC,  
PUNCTUATIONAL AND STYLISTIC SKILLS BY TEACHING LANGUAGE  
LEVELS***Gulyamova Kholidha,**Senior teacher of the Department of Uzbek Linguistics, Chirchik State Pedagogical  
University*

*Annotatsiya. Mazkur maqolada matabda tilni o'rgatishda til sathlarini o'rgatish orqali o'quvchilarda orfoepik, orfografik, punktuatsion va uslubiy ko'nikmalarini shakllantirish haqida so'z yuritiladi. Аннотация*

*Kalit so'zlar: fonetika, fonologiya, grafika, orfoepik, orfografik, punktuatsion va uslubiy ko'nikmalar, tovush va harf, til birlklari, tilning ijtimoiy mohiyati.*

*В данной статье обсуждается о формировании у учащихся орфопоэтических, орфографических, пунктуационных и методических навыков в обучении языку в школе посредством преподавания уровней языка*

*Ключевые слова: фонетика, фонология, графика, орфоэтика, орфографические, пунктуационные и стилистические навыки, звук и письмо, языковые единицы, социальная сущность языка.*

*Abstract. This article discusses the formation of students' spelling, spelling, punctuation and methodological skills in teaching language at school through teaching language levels.*

*Keywords: phonetics, phonology, graphics, pronunciation, spelling, punctuation and stylistic skills, sound and writing, language units, social essence of language.*

Ma'lumki, ta'lif sohasidagi davlat siyosati insonni intellectual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi .

O'zbek tilini o'qitish fanining bosh vazifasi ham umumiyligi o'rta ta'lif maktablarida o'quvchilarning ona tilining lug'at boyligidan, tilning grammatik qurilishidan to'g'ri foydalana bilish, og'zaki va yozma nutq savodxonligini shakllantirishdan iborat.

Ma'lumki, jamiyatda til kishilar o'rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir. Tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzlusiz ortib boradi. Til borliqni oqilona, mantiqiy bilish vositasidir. Til birlklari yordamidagina bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani muhokama va xulosa bilan bog'lash amalga oshiriladi.

O'zbek tili o'qitish fani o'quvchilarni til materiallarini kuzatish ishlardan umumiyligi xulosa chiqarishga, nazariy ta'rif va qoidaga, shular asosida yana og'zaki va yozma tarzdagi nutqiy aloqaga, to'g'ri yozuv va to'g'ri talaffuzga tayyorlaydi. O'quvchilar jonli nutqiy aloqaga to'g'ri talaffuz va to'g'ri yozuvni nazariy ma'lumotlar asosida amaliy egallash orqali kirishadilar, til materiallarini kuzatish, tahvil qilish orqali elementar nazariy qoidalari chiqaradilar, o'rgangan va o'zlashtirilgan nazariy qoidalarni amaliyotga ongli ravishda tatbiq etadilar. Fonetik va grafik ko'nikmalarini shakllantirishda ham shu qonuniyatga asoslanadi.

Fonetika va fonologiya, grafikani o'zaro bog'liqlikda o'rgatish metodik jihatdan quyidagi ko'nikmalarini shakllantirishda ilmiy ham metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Fonetika va grafikaning fonetik tamoyil asosida yoziladigan imlo ko'nimalarini o'zlashtirishda ahamiyati katta.

Fonetik va fonologik bilimi bo‘lmagan o‘quvchilarda imlo ko‘nikma va malakalarni shakllantirish mumkin emas. Fonetika va fonologiya o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini savodli shakllantishda muhim o‘rin tutadi, chunki so‘zning tovush tarkibini to‘g‘ri shakllantirishga uning tovush tomoni o‘z ta’sirini o‘tkazadi. So‘zning tovush tomonidan to‘g‘ri nusxa ko‘chirish tovushlarning og‘zaki nutqda qanday talaffuz qilinishiga bog‘liq. Ma‘lumki, nutq, til qonuniyatlariga e’tibor bermaslik amaliy nutq faoliyatini egallahsga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, fonetik ko‘nikmalarga yetarli e’tibor berilmasa, imloviy savodxonlikka putur yetadi. Bu ta’lim tamoyili tildan olib boriladigan mashg‘ulotlarda eshituv va ko‘rvu ko‘rsatmalilagini ta’minalashni va nutq organlarini mashq qildirishni talab etadi.

Til juda murakkab hodisa, uning qonuniyatlarini, o‘xshashlik va farqlarini o‘zlashtirmay turib, uni yodda saqlab bo‘lmaydi. O‘quvchi ta’lim jarayonida gaplashish, o‘qish, eshitish, yozish orqali til materiallarini yig‘adi, uning qonuniyatlarini tahlil orqali o‘zlashtiradi. Natijada o‘quvchida tilga sezgirlik shakllanadi.

Ona tili ta’limida o‘quvchilarning nutqiy tayyorgarligini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘quvchi bilan qanday ishslash kerakligini ko‘rsatadi. Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchining og‘zaki bog‘lanishli nutqini aniqlovchi ish turlaridan foydalanishi, o‘quvchiga bilgan tez aytishlarini, she’r, hikoya, maqol, hikmatli so‘zlarni aytirishi va ularning aytishlarni, aytishli bilan yozishida farq qiluvchi holatlarni so‘rashi orqali unda tilni organizhga motivatsiyani yuzaga keltirishi lozim.

O‘quvchilar og‘zaki va yozma nutqni egallahshlarida fonetika va fonologiyadan olgan bilimlarining amaliy ahamiyatini: fonetik bilimga asoslangan holda so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilish, ya’ni tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, urg‘uli bo‘g‘inni farqlash, orfoepik me’yoргa rioya qilish orqali so‘zning talaffuzi bilan yozishda oxshashlik hamda farqni anglash, morfologik va so‘z yasalishiga oid bilimlar bilan birga o‘quvchilarda bir qator imloviy malakalarni (jarangsiz va jarangli undoshlarning imlosini) egallah mumkinligini anglab yetadilar. Fonetik bilim asoslangan holda gapni ohangiga ko‘ra to‘g‘ri aytish, logik urg‘u va gap qurilishidagi to‘xtamlarga rioya qilish gap mazmunini to‘g‘ri tushunish ko‘nikmasini, so‘zning tovush tomonini bilish uming ma’nosi orasidagi bog‘lanishni tushunib olishga va nutqda so‘zlarni ongли qo‘llashga yordam berishini bilib oladilar. So‘zning tovush tomonini tasavvur qilish ularni to‘g‘ri talaffuz qilish va to‘g‘ri yozish uchun zarur.

Tovush - murakkab tushuncha. O‘quvchilarda tovush haqida to‘g‘ri ilmiy tasavvur amaliy mashqlar yordamida hosil qilinadi. Bunda yetakchi usul so‘zdagi tovushlarniig talaffuzi hamda so‘zning leksik ma’nosi so‘zdagi tovushlarning tarkibiga bog‘liqligi ustida kuzatish hisoblanadi. Masalan, aka, uka, opa, ona, ota, kul, gul, qora, qara kabi bir unli yoki bir undosh bilan farqlanadigan so‘zlar har xil lug‘aviy ma’noni ifodalaydi. Shu asosda tovush so‘zning eng kichik ma’noli qismi, so‘z ma’nosini o‘zgartiradigan til birligi tushunchasi shosil qilinadi. Bu o‘quvchini so‘zning tovush tarkibiga bo‘lgan e’tiborini kuchaytiradi.

Fonetik birlik ustida ishslash ta’limning boshlang‘ich bosqichidan boshlanadi. Shu davridanoq o‘quvchilar diqqati so‘zning talaffuzi va eshitilishi o‘rtasidagi farqqa yetarli darajada qaratilishi zarur.

O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi tilshunoslikning bo‘limlari yuzasidan o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda bo‘limlararo ichki bog‘lanishga asoslanadi. Jumladan, grafika nutq tovushlarining yozuvdagagi ifodasi ekan grafikani o‘qitishda nutqning fonetik xususiyatlarga, fonetik bilim, ko‘nikma, malakalarni grafikaga asoslanib o‘qitish kutilgan natijani beradi. Ikkinchidan, fonetik bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda o‘zbek tilining tovush tizimi, tovushlarning o‘ziga xos xususiyatlari, bo‘g‘in tuzilishi, bo‘g‘inlab ko‘chirishga doir o‘ziga xos xususiyatlarga asoslanishni taqozo etadi. Dastlab unli va undosh tovushlar bilan tanishtiriladi. Bunda o‘quvchilarning boshlang‘ich sinfda egallagan bilimlari aynan takrorlanmasdan mushohada yuritishga undovchi savol-topshiriqlardan foydalanish lozim. Masalan:

-Fonetikka qaysi tovushlarni o‘rganadi?

-Qaysi unli tovushlarning talaffuzi bilan yozishida farq bo‘ladi? Fikringizni misollar bilan asoslang.

-Ko‘proq qaysi undosh tovushlarning talaffuzi bilan yozishshi mos kelmaydi? Fikringizni misollar bilan asoslang.

-Tovushlarning talaffuzidagi o‘zgarishlar qanday holatlarga bog‘liq bo‘ladi? Fikringizni misollar bilan asoslang.

Ko‘pincha o‘qituvchilar nutq tovushlarining necha guruhga bo‘linishi, talaffuz qilinish usuli (unli tovush talaffuz qilinganda havo oqimi og‘iz bo‘shlig‘idan erkin ravishda o‘tadi, undosh tovush talaffuz qilinganda, havo og‘iz bo‘shlig‘ida to‘siqqa uchraydi), ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra tovushlarning turi (unli tovushlar faqat ovozdan iborat, undosh tovushlar talaffuz qilinganda shovqin eshitiladi, ba‘zan shovqin va qisman ovoz eshitiladi), qaysi tovush bo‘g‘in hosil qilishi kabi nazariy tushunchani egallashga qaratilgan savollar bilan cheklanadilar. Aslida tovushlarning xususiyatidan kelib chiqib talaffuzda va yozuvda kelib chiqadigan xatolarni baratarf qiladigan ta’limiy mashq va tahlillarni tashkil etishi maqsadli bo‘ladi.

Tovushlarning so‘z tarkibidagi talaffuzi, so‘zdagi o‘rnining uning talaffuzi va yozuvda ifodalanishiga ta’siri taqqoslash usili bilan o‘rgatib boriladi. Tovush-harf nomutanosibligi bo‘lgan o‘rinlarda xatoliklarning oldini olish uchun so‘zlarning tovush-harf tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, x va h tovushlari va ularning yozuvda ifodalanishi quyidagi tartibdagi savollar asosida o‘rgatiladi:

Bu nima? (darsaxtning shoxi ko‘rsatiladi) Bu kim? (Podshoning rasm) doskaga ikkita rasm ilinadi. So‘z oxiridagi tovushlarning aytishi bilan yozilishini taqqoslash. 1-rasmni ifodalagan so‘zni aytинг va yozing. 2-rasmni ifodalagan so‘zni aytинг va yozing. ( shox shoh) Shu so‘zlarning oxirida kelgan tovush qanday aytilyapti? Bu so‘zlar qaysi tovushiga ko‘ra farqlanyapti? Bu tovushlarni biri o‘rnida ikkinchisini aytish qanday xatoni keltirib chiqaradi? (imlo va mantiqiy xatoni)

Shundan so‘ng x va h tovushlari talaffuzi, imlosi va ma’no farqlashdagi xususiyati quyidagi izchillida o‘rganiladi .

X va h undoshlarining imlosi	
X	H
xil-xil	hil-hil
xam	ham
xol	hol
xush	hush

Jadval ustida ishslash uchun 1-tur topshiriqlar:

1. Audioni eshitning X va h undoshlarining talaffuzini eslab qoling.
2. So‘zlarni o‘qing.
3. Ularning talaffuzidagi farqni aytинг.
4. So‘z ma’nolaridagi farqni misollar asosida izohlang.

Namuna:

xil-xil – turli xil (matolar) – hil-hil – yumshoq (pishgan shaftolilar)  
xol -yuzidagi qora xol(xoli o‘ziga yarashgan) – hol - ahvol (ahvoli yaxshi)  
xush – ... ( xush kelibsiz) – hush - (hushi boshidan uchdi)

xam –egildi (boshi xam bo‘ldi) – ham – so‘zlarni bog‘laydigan so‘z (Saida ham Sojida keldi).

Mustaqil fikrlashga undovchi 2-tur savol-topshiriqlar:

1. O‘ylang, x va h undoshlari so‘zlarda qanday o‘zgarishlar hosil qilar ekan?
2. O‘zbek tilidagi x va h harflari qaysi tovushlarni ifoda etadi? Fikringizni asoslang.
3. X va h tovushlarning talaffuzida qanday farqni kuzatdingiz? So‘zlarni yozishda ularni qanday farqlash mumkin?

X va h undoshlarining talaffuzi va imlosini mustahkamlovchi mashqlar.

“Tushirilgan harfni topib qo‘y!” o‘yini. Doskaga x va h harfi tushirilgan so‘zlar terib qo‘yiladi. O‘quvchilar kesma x va h harflaridan mosini o‘rniga qo‘yib, so‘zni o‘qiydi. Fikrini asoslaydi:

ba . o

. ato

Rasm diktant jufti bor jarangli undoshlar talaffuzi va yozilishidagi farqni o‘rgatishda o‘quvchilarni fikrlashga, izlanishga undaydi. O‘qituvchi doska tagligiga x va h undoshli narsalar rasmini terib qo‘yadi. O‘quvchilar ularning nomini 2 guruhga ajratib yozadilar. Yozgan so‘zlarining talaffuzi va imlosini asoslab beradi .

Fonetik ko‘nikmalarни shakllantirishning asoslari sifatida quyidagi tahlil turlarini

ko'rsatish mumkin: 1.Barcha nutq uslublariga oid matnni so'zning tovush-harf tarkibi jihatidan tahlili. 2.Tahlilda og'zaki talaffuz bilan yozma shakl o'rtasidagi nomuyanosiblikni aniqlash. 3.So'zning talaffuzidagi farqlarning yozma nutqqa ta'sirini izohlash. 4.Tahlil qilingan so'zga o'xshash so'zlar guruhini toplash va ularni o'zaro taqqoslash. Aslida tilning barcha bo'limlarini o'rgatish til birliklaridan og'zaki va yozma nutqda to'g'ri foydalana olishga, orfoepik, orfografik, punktuatsion va uslubiy ko'nikmalarни shakllantirishga yo'naltirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risi" dagi Qonuni://Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq. 1997. -64. -20-29-b.
2. S.Matchonov va b. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Ishonchli hamkor. 2022. 535-bet.
3. Nusratova, K. C. (2021). RELEVANCE OF THE TOPIC OF WAR IN UZBEK CHILDREN'S LITERATURE (ON THE EXAMPLE OF THE WORK OF THE WRITER SAFAR BARNOEV). Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 740-745.
4. Bakiyeva, H. (2019). DEVELOPING ARTICULATION OF ELEMENTARY CLASS STUDENTS USING INDEPENDENT WORK METHODOLOGY. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(6).